

Abduramanov Xamid Xudaybergenovich,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
direktori o‘rinbosari,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor



O‘ZBEKISTONDA AHOLINING KEKSAYISH JARAYONI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi keksayishi ko‘rsatkichlari, aholining keksayish darajasi mezonlari, qarish shkalasi, keksayish ko‘rsatkichlari, quyidan va yuqoridan keksayish haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan.

Аннотация. В статье анализируются данные по показателям старения населения, критериям скорости старения населения, шкале старения, показателям старения, старению снизу и сверху.

Annotation. This article analyzes data on population aging indicators, population aging rate criterion, population aging scale, population aging indicators, aging from below and from above.

Tayanch so‘zlar: aholi, keksalik, qariyalar, qarish jarayoni, qarish indeksi, keksayish darajasi, qarish shkalasi, keksayish ko‘rsatkichlari, quyidan keksayish, yuqoridan keksayish, qariyalar salmog‘i, qarish bosqichlari, keksalik tasnifi.

Ключевые слова: население, пожилой возраст, пожилые люди, процесс старения, индекс старения, уровень старения, шкала старения, показатели старения, старение снизу, старение сверху, доля пожилых людей, этапы старения, классификация старости.

Keywords: population, old age, old people, aging process, aging index, aging rate, aging scale, aging indicators, aging from below, aging from above, part of the elderly, stages of aging, classification of old age.

**Aholining
keksayishi
hozirgi davrning
zamonaviy
demografik
hodisasi
hisoblanib, garchi
uning rivojlanish
intensivligi turlicha
bo'lsa-da, barcha
mamlakatlar
uchun xos
bo'lmoqda.**

Kirish. Aholining keksayishi hozirgi davrning zamonaviy demografik hodisasi hisoblanib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlicha bo'lsa-da, barcha mamlakatlar uchun xos bo'lmoqda. Kishilik jamiyati rivojlanishning hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar demografik jarayonlar – tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarining keskin kamayishiga, aholining tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining uzayishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Buning natijasida aholining keksayish jarayoni boshlandi.

Tarixiy nuqtayi nazaridan olib qaralganda, demografik qarish jarayonining ayrim xususiyatlari XIX va XX asrlardayoq ko'zga tashlangan edi. Biroq muayyan davlatlar va jahon mintaqalarida keksaygan kishilar ulushining muntazam ortib borish sabablari, omillari va natijalarini tizimli tadqiq etish o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. A.Ya. Boyarskiy, J. Bojyo-Garnye, J. Burjua-Pish, I.V. Kalinyuk, S.I. Pirojkov, N.N. Sachuk, E. Rosset kabi iqtisodchi olimlarning aksariyati tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar demografik qarish (yoki aholining qarishi) aholi umumiy sonida keksaygan kishilar salmog'i ortishi bilan bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi.

Asosiy qism. Demograf olimlar tomonidan aholining keksayish darajasini “qarish indeksi” vositasida baholash taklif etilgan. “Qarish indeksi” tushunchasi fanga taniqli demograf A. Sovi tomonidan kiritilgan. Fransuz demografi qarish indeksini mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (qariyalar) sonining mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi (bolalar) soniga foizlarda hisoblangan nisbati orqali aniqlashni va aholining keksayish darajasini baholashda hozirda jahonning ko'pchilik mamlakatlarida foydalanilayotgan quyidagi demografik mezonni taklif qildi (1-jadval).

1-jadval

Aholining keksayish darajasi mezon*

Bosqich	Aholining qarish indeksi, %	Aholining qarish darajasi
I	20 dan kam	past
II	20-30	o'rta
III	30 dan baland	yuqori

* Jadval muallif tomonidan Калинин И.В. *Возрастная структура населения СССР. (– Москва: Статистика, 1975. – С. 14) ta'lumotlari asosida tuzilgan.*

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, aholining qarish indeksi 20 foizdan kamni tashkil etsa, ushbu hudud aholisining keksayish darajasi past

hisoblanadi. Agar qarish indeksi 30 foizdan ortsa, bu hudud aholisi yuqori darajada keksayotgan hududlar qatoridan o‘rin oladi.

Muayyan hududda aholi keksayish jarayonining rivojlanish darajasini baholashda belgilangan yosh chegarasidan yuqori yoshdagi aholi salmog‘i ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Mazkur ko‘rsatkichning ortib borishi bilan shu hudud aholisini demografik nuqtayi nazardan qari hisoblash mumkin. Shu munosabat bilan, ko‘p mamlakatlardagi olimlar demografik qarilik to‘g‘risidagi masalani ko‘tarmoqda. Masalan, fransuz demograflari Jaklin Bojyo-Garne va E.Rosset demografik qarilikni to‘rt bosqichga ajratishni taklif qilgan (2-jadval).

2-jadval

Aholi qarish jarayonining rivojlanish darajasiga ko‘ra keksalik tasnifi*

Bosqich	Qariyalar salmog‘i (60 yosh va undan yuqori), % hisobida	Qarish bosqichlari va aholining keksayish darajasi
I	8 kam	demografik yosh
II	8-10	qarish bo‘lag‘asida
III	10-12	haqiqiy qarish
IV	12 va yuqori	demografik qarilik
	12-14	demografik qarilikning boshlang‘ich bosqichi
	14-16	demografik qarilikning o‘rtacha bosqichi
	16-18	demografik qarilikning yuqori darajasi
	18 va yuqori	demografik qarilikning o‘ta yuqori darajasi

* Jadval Медков В.М. Демография (– Москва: Инфра, 2008. – С.132) ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadval ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, muayyan hudud aholisi tarkibida qariyalar ulushi 8 foizdan kamni tashkil qilsa, bu hudud aholisi demografik yosh, 12 foizdan ko‘p bo‘lsa, demografik qari hisoblanadi. Hozirgi kunda bu holat, asosan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, jumladan Germaniya (24%), Fransiya (23,7%), Buyuk Britaniya (20,3%) kabi davlatlarda kuzatilayotganligining guvohi bo‘lamiz.

BMT demograflari demografik qarish darajasini baholash maqsadida uch bosqichli shkala ishlab chiqqan (3-jadval) bo‘lib, ular quyidagicha:

Muayyan hudud aholisi tarkibida qariyalar ulushi 8 foizdan kamni tashkil qilsa, bu hudud aholisi demografik yosh, 12 foizdan ko‘p bo‘lsa, demografik qari hisoblanadi.

Aholining qarish shkalasi*

Bosqich	65 va undan yuqori yoshdagilar ulushi, % hisobida	Aholining qarish darajasi
I	4 dan kam	demografik yosh
II	4-7	qarish bo'sag'asida
III	7 dan yuqori	demografik qari

*Jadval Демографический энциклопедический словарь (– Москва: Советская энциклопедия, 1985. – С.117) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bugungi kunda aholi keksayishi jarayonining quyidan yoki yuqoridan rivojlanib borishiga qarab “quyidan keksayish” va “yuqoridan keksayish” kabi turlarga ajratiladi:

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, BMT demograflari aholining keksayish darajasini baholash uchun keksalik yoshining boshlanish chegarasini asos qilib olgan va unga ko'ra, aholining yosh tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilarning ulushi 7 foizdan oshsa, bu hudud aholisi demografik qari hisoblanadi.

Yuqoridagi mezonlarga asoslangan holda, O'zbekiston aholisining keksayish darajasini baholaydigan bo'lsak, fransuz demograflari tasnifi bo'yicha 60 va undan yuqori yoshdagilar aholining 6,0 foizini tashkil etadi va respublika aholisi demografik nuqtayi nazardan yosh, BMT demograflari tasnifi bo'yicha esa 65 va undan yuqori yoshdagilar aholining 4,5 foizini tashkil etadi va respublika aholisi demografik qarish bo'sag'asida turibdi.

Aholining keksayishi juda uzoq vaqt davomida uning takror barpo bo'lishidagi o'zgarishlar, aholi migratsiyasi va urushdan keyingi sanitar-demografik holatlar kabi murakkab omillar tufayli sodir bo'ladi. Bugungi kunda aholi keksayishi jarayonining quyidan yoki yuqoridan rivojlanib borishiga qarab “quyidan keksayish” va “yuqoridan keksayish” kabi turlarga ajratiladi:

“quyidan keksayish” – tug'ilishning qisqarib borishi natijasida aholining yosh tarkibida bolalar salmog'ining kamayishi, qariyalar salmog'ining esa ortib borishidir;

“yuqoridan keksayish” – tug'ilishning kamayishi sharoitida keksa yoshdagi aholi o'rtasida o'limning qisqarishi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining esa uzayishi hisobiga qariyalar salmog'ining ortib borishidir.

Ilmiy kuzatishlarimiz ko'rsatishicha, aholi, asosan, tug'ilishning kamayishi hisobiga qariydi, ya'ni “quyidan” keksayish jarayoni sodir bo'ladi. Shu bilan birga, hozirgi davrda rivojlangan G'arb mamlakatlari va Yaponiyada tibbiyot sohasida erishilgan yutuqlar tufayli qariyalar orasida o'lim holatlari keskin kamaydi va aholining o'rtacha umr ko'rish

muddati uzaydi. Buning natijasida aholining “yuqoridan” keksayish jarayoni boshlandi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 1975-yilda dunyo aholisi tarkibida 65 yosh va undan katta aholi ulushi 5,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilga kelib bu miqdor 7,2 foizga yetdi. BMT taxminlariga ko'ra, 2025-yilda qariyalar dunyo aholisining 10,4 foizini tashkil etadi. O'zbekistonda ham bugungi kunda ikkinchi jahon urushidan keyingi “demografik to'ldirish” davrida tug'ilgan aholining qariyalar guruhi qatoriga qo'shilishi, yangi iqtisodiy sharoitga o'tish davrida tug'ilish darajasining keskin qisqarishi hisobiga aholining keksayishi jarayoni boshlandi (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston Respublikasida aholining keksayish ko'rsatkichlari * (%)

Yillar	Keksalik koeffitsiyenti	Qarish indeksi	Keksalik salohiyati koeffitsiyenti
1991	7,7	17,9	11,9
1995	7,6	17,9	12,3
2000	7,2	18,3	14,1
2008	7,3	21,5	18,1
2010	7,6	24,4	19,4
2022	11,5	36,1	20,8

* Jadval ma'lumotlari muallifning hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

4-jadval ma'lumotlari 1991–2008-yillar davomida respublikaning shahar hamda qishloq aholisida keksalik koeffitsiyentiga kamayish tendensiyasi xos bo'lganini, biroq uning davrlar bo'yicha tahlili bir me'yorda bo'lmaganini ko'rsatadi. Jumladan, 1991–2000-yillarda jami qishloq aholisida keksalik koeffitsiyenti – 0,5, shahar aholisida – 0,4 punktga kamaygan bo'lsa, 2000–2008-yillarda keksalik koeffitsiyenti jami shahar aholisida 0,1 punktga o'sgan, 4,3 qishloq aholisida esa barqarorlashgan. 2008–2022-yillarda keksalik koeffitsiyenti 4,3, qarish indeksi 17,8, keksalik salohiyati koeffitsiyenti esa 6,7 punktga o'sgan.

O'zbekiston Respublikasida aholining keksayish jarayoni boshlanganini qarish indeksi dinamikasida ham ko'rishimiz mumkin. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, 1991–2008-yillarda respublikada aholining qarish indeksi muntazam ortib, jami aholida – 3,6, shahar aholisida – 6,0, qishloq aholisida esa 3,1 punktga oshgan.

Ma'lumki, aholi keksayish jarayonining kelgusida rivojlanishi, asosan, uning zaxirasi, ya'ni yetuklik (40–59 yosh) yoshidagi aholining

BMT taxminlariga ko'ra, 2025-yilda qariyalar dunyo aholisining 10,4 foizini tashkil etadi. O'zbekistonda ham bugungi kunda ikkinchi jahon urushidan keyingi “demografik to'ldirish” davrida tug'ilgan aholining qariyalar guruhi qatoriga qo'shilishi, yangi iqtisodiy sharoitga o'tish davrida tug'ilish darajasining keskin qisqarishi hisobiga aholining keksayishi jarayoni boshlandi.

2000–2022-yillar davomida respublikada aholining keksalik koeffitsiyenti 7,2 foizdan 11,5 foizga yoki 4,3 punktga ortgan. Albatta, ko‘rilayotgan davrda hududlar miqyosida keksalik koeffitsiyentining ko‘payishi turlicha bo‘lgan.

miqdoriga bog‘liqdir. Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda 40–59 yosh guruhidagi aholining yuqori sur‘atda o‘shishi aholining keksalik salohiyati koeffitsiyentining oshishiga olib kelmoqda. Jumladan, 2008-yilda 1991-yilga nisbatan keksalik salohiyati koeffitsiyenti respublikada – 6,2, shaharda – 6,0, qishloq joylarida esa 6,6 punktga o‘sgan. Bu esa, yaqin kelajakda respublika va uning hududlarida aholining keksayishi jarayoni yanada taraqqiy etishidan dalolat beradi.

Shuningdek, 2022-yilda keksalik koeffitsiyenti 11,5, qarish indeksi 36,1, keksalik salohiyati koeffitsiyenti 20,8 punkt bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasida aholi keksayishi jarayonining rivojlanishini uning hududlarida ham kuzatish mumkin (5-jadval).

5-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida aholi keksayishi ko‘rsatkichlari* (%)

Hududlar	Keksalik koeffitsiyenti		Qarish indeksi		Keksalik salohiyati koeffitsiyenti	
	2000-yil	2022-yil	2000-yil	2022-yil	2000-yil	2022-yil
O‘zbekiston boyicha	7,2	11,5	18,3	36,1	14,1	20,8
Qoraqalpog‘iston viloyatlar:						
Andijon	7,0	11,0	17,9	34,5	14,0	21,6
Buxoro	7,0	12,3	18,3	42,3	14,2	22,8
Jizzax	6,4	10,4	14,7	31,8	13,1	18,5
Qashqadaryo	6,0	9,5	13,5	28,4	12,0	18,6
Navoiy	6,8	11,2	17,7	36,8	14,6	21,7
Namangan	6,7	10,4	16,3	32,4	13,1	20,9
Samarqand	6,6	10,5	15,5	31,7	13,2	19
Surxondaryo	6,0	9,0	13,4	26,4	11,5	18,7
Sirdaryo	5,7	9,4	13,8	29,7	13,6	19,6
Toshkent	8,6	13,0	23,3	44,1	14,1	21,8
Farg‘ona	7,6	11,6	19,4	37,8	14,0	21,8
Xorazm	6,4	9,8	15,8	31,6	12,6	21,5
Toshkent sh.	11,7	15,4	41,4	56,5	20,6	24,2

* Jadval ma’lumotlari muallifning hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

5-jadvaldan ko‘rinib turganidek, 2000–2022-yillar davomida respublikada aholining keksalik koeffitsiyenti 7,2 foizdan 11,5 foizga yoki 4,3 punktga ortgan. Albatta, ko‘rilayotgan davrda hududlar miqyosida keksalik koeffitsiyentining ko‘payishi turlicha bo‘lgan.

Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy viloyatlari hamda Toshkent shahrida keksalik koeffitsiyentining dinamikasiga o‘shirish tendensiyasi, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida kamayish tendensiyasi xos bo‘lgan, qolgan hududlarda esa bu koeffitsiyent barqarorlashgan.

O‘zbekistonda aholining yosh tarkibida bolalar mutlaq sonining kamayishi qarish indeksining muntazam oshib borishini ta‘minlamoqda. Xususan, 2000-2022 yillar respublikada aholining qarish indeksi 18,3%dan 36,1ga yoki 17,8 punktga ortgan. Bunday tendensiyani respublikaning barcha hududlarida ham kuzatishimiz mumkin.

Umuman olganda, aholining qarish indeksiga asoslangan holda hududlar aholisining keksayish darajasini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Aholisi nisbatan sust keksayayotgan hududlar (20 foizdan kam) – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari.

2. Aholisi o‘rtacha darajada keksayayotgan viloyatlar (20–30%) – Andijon, Buxoro, Navoiy, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari.

3. Aholining keksayishi yuqori darajada bo‘lgan hudud (30 foizdan yuqori) – Toshkent shahri.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekistonning barcha hududlarida aholining keksalik salohiyati koeffitsiyenti muntazam ortib bormoqda. Masalan, 2000–2022-yillar respublikada keksalik salohiyati koeffitsiyenti 14,1 foizdan 20,8 foizga yoki 6,7 punktga ortgan. Bunday tendensiya barcha hududlarda ham kuzatilib, 2022-yilda keksalik salohiyati bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri (24,2%), Toshkent (21,8%), Buxoro (22,8%) va Navoiy (21,7 %) viloyatlarida qayd etilgan.

Shunday qilib, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi sharoitida O‘zbekistonda aholining keksayish jarayoni rivojlanmoqda. Bu hol, o‘z navbatida, respublikada tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlarining kamayishi, aholining tug‘ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining uzayishi bilan bog‘liq.

Aytish joizki, aholining keksayishi jarayonining rivojlanishi quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keladi:

– aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi;

– pensiya jamg‘armasi zimmasiga pensiyalar to‘lash xarajatlarining benihoya og‘ir yuki tushadi;

– qariyalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun qo‘shimcha mablag‘ sarflash, geriatric muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va butun sog‘liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi;

O‘zbekistonda aholining yosh tarkibida bolalar mutlaq sonining kamayishi qarish indeksining muntazam oshib borishini ta‘minlamoqda. Xususan, 2000-2022 yillar respublikada aholining qarish indeksi 18,3%dan 36,1ga yoki 17,8 punktga ortgan. Bunday tendensiyani respublikaning barcha hududlarida ham kuzatishimiz mumkin.

Ta'kidlash lozimki, respublikada pensiya jamg'armasi mablag'larining 87,5 foizini haqiqiy pensiya to'lovlari, qolgan 12,5 foizini moliyalash bilan qoplanmaydigan qo'shimcha xarajatlar (pensiyaga ustamalar, ijtimoiy nafaqalar, harbiy xizmatchilarga pensiya to'lovlari) tashkil etgan.

– ishlashni istovchi “yosh qariyalar”ni ish bilan ta'minlash;
– moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining tuzilmasiga ta'sir qiladi, ya'ni qariyalarning ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Bizning fikrimizcha, aholining keksayishi sharoitida qariyalarning turmush farovonligini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Pensiya jamg'armasining moliyaviy holatini yaxshilash. Buning uchun:

– pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanish. Ta'kidlash lozimki, respublikada pensiya jamg'armasi mablag'larining 87,5 foizini haqiqiy pensiya to'lovlari, qolgan 12,5 foizini moliyalash bilan qoplanmaydigan qo'shimcha xarajatlar (pensiyaga ustamalar, ijtimoiy nafaqalar, harbiy xizmatchilarga pensiya to'lovlari) tashkil etgan. Bizningcha, agar moliyalash bilan qoplanmaydigan qo'shimcha xarajatlar davlat byudjetining boshqa manbalaridan moliyalashtirilsa, bu birinchidan, pensiya jamg'armasi mablag'larining maqsadlilikini oshirardi, ikkinchidan esa, pensiya jamg'armasining moliyaviy ahvoli yaxshilanardi;

– imtiyozli pensiyani kamaytirish. Fikrimizcha, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida kuzatilayotgan xususiyatlar, ya'ni oilada beshinchi va undan keyingi bo'lib tug'ilayotgan bolalar sonining kamayishi, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning kiritilishiga katta e'tibor qaratilayotganligi sababli, iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlaridagi mehnat sharoiti avvalgidek zararli va og'ir hisoblanmasligi imtiyozli asosda tayinlanadigan pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Bu esa, pensiyaga chiqish o'rtacha yoshini erkaklar uchun 1,5 yilga, ayollar uchun 2 yilga ko'tarish imkonini beradi;

– erkak va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirish. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida bevosita ayollarga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlar, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ayollar salmog'ining ortib borishi, ayollarda erkaklarga nisbatan tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining yuqoriligi, reproduktiv yoshdagi ayollarda tug'ish hollari keskin kamayib borishi erkaklar va ayollar uchun pensiyaga chiqish yoshini tenglashtirish imkonini yaratadi. Mazkur tadbirning amalga oshirilishi o'rtacha pensiyaga chiqish yoshini 3 yilga ko'tarishga imkon beradi.

2. Nodavlat jamg'armalar tomonidan qariyalarni manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasini yanada kuchaytirish. Buning uchun

quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni, ya'ni haqiqiy yordamga muhtoj qariyalarni aniqlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish hamda doimiy nazoratga olish; mahallalarda keksa kishilar bilan ish olib boruvchi jamoatchilik kengashlarini tashkil etish; fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tasarrufida qariyalar markazini barpo etish; mahallalar, tashkilot va muassasalarni, tadbirkor va ishbilarmonlarni yolg'iz qariyalarga homiylik yordami ko'rsatishga jalb qilish ishlarini yaxshilash va bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish tavsiya etiladi.

3. Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida geriatrik markaz va respublikaning barcha tuman va shaharlarida shu markazning bo'limlarini ochish hamda ular tomonidan aholining shu kategoriyasiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat turlarini ko'paytirish. Fikrimizcha, geriatrik markazning asosiy vazifasi qariyalarning sog'lig'ini yaxshilash uchun optimal sharoit yaratish, ularning jamiyat hayotida faol ishtiroki hamda jismoniy-ruhiy sog'lig'ini uzoq muddat davomida tutib turish hisoblanadi. Biz geriatrik markazlar qariyalarning sog'lig'ini tiklash uchun quyidagi qator chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishi lozim, deb hisoblaymiz:

- har bir hududda yashovchi keksalar ro'yxatini tuzish, surunkali bemorlarni davolash va doimiy kuzatish;
- qariyalar uchun rejali tarzda maslahatlar berishni tashkil qilish;
- geriatriya bo'yicha uchastka vrachi va boshqa mutaxassislarning malakasini doim oshirish;
- shu yo'nalishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish;
- qarish profilaktikasi va davolashning zamonaviy geriatrik usuli, geroformokologiyaning so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy qilish.

4. Bakalavriat va magistratura yo'nalishlari klassifikatoriga "Gerontologiya", "Geriatriya" ixtisosliklari, tibbiyot kollejlariga "Patronaj hamshirasi", "Ijtimoiy xodim" ixtisosliklarini kiritish bo'yicha davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritish va shu ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.

5. Barcha mahallalarda qariyalar uchun mo'ljallangan kunduzgi muloqotda bo'lish va hordiq chiqarish jamoatchilik markazlarini ko'paytirish. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlari 2003–2008-yillar mobaynida respublikada qariyalar uchun mo'ljallangan kunduzgi jamoat markazlari soni 210 tadan 117 taga kamayganligini ko'rsatadi. Bunday holat respublikaning barcha hududlarida ham kuzatiladi. Respublikada yolg'iz keksalarning soni eng yuqori bo'lgan Andijon viloyatida atigi 2 ta, Sirdaryo viloyatida esa 1 ta jamoat markazining mavjudligi achinarli holdir. Yana shuni alohida qayd qilish lozimki, 2008-yilda respublikada jami ro'yxatga olingan

Fikrimizcha, geriatrik markazning asosiy vazifasi qariyalarning sog'lig'ini yaxshilash uchun optimal sharoit yaratish, ularning jamiyat hayotida faol ishtiroki hamda jismoniy-ruhiy sog'lig'ini uzoq muddat davomida tutib turish hisoblanadi. Biz geriatrik markazlar qariyalarning sog'lig'ini tiklash uchun quyidagi qator chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishi lozim.

yolg'iz keksa-qariyalarning atigi 26,0 foizi jamoatchilik markazlariga jalb qilingan. Bu yo'nalishda eng past ko'rsatkichlar Andijon (2%), Namangan (6,4%), Sirdaryo (4,8%) va Farg'ona (3,2%) viloyatlarida kuzatiladi. Fikrimizcha, milliy mentalitetdan kelib chiqib, respublikaning barcha tuman, shahar va ovullaridagi mahallalarda keksa-qariyalar uchun mo'ljallangan kunduzgi muloqotda bo'lish va hordiq chiqarish jamoatchilik markazlari sonini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

6. Yolg'iz keksalarga o'z uyida ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish. Bunda aholi uchun keksa yoshdagilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar to'g'risida to'liqroq axborot taqdim etish; respublikadagi bandlikka ko'maklashuvchi markazlar o'z faoliyatida ishsiz fuqarolarni mazkur yo'nalishdagi haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilishga alohida e'tibor berib, muhtoj yolg'iz keksalarni o'z uyida ijtimoiy xizmat turi bilan to'liq qamrab olish; keksa insonlarning parvarishi bilan band bo'lgan keksalarning qarindoshlariga egiluvchan grafik asosida ishlashga imkon berish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqorida berilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga tadbiiq etish O'zbekistonda istiqomat qilayotgan qariyalarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligining oshishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Демографический ежегодник Узбекистана – 2003. Стат. сборник. – Ташкент, 2004. – С.109-110.*
2. *Социальное развитие и уровень жизни населения Узбекистана. Стат. сборник. – Ташкент, 2008. – С.42.*
3. *Демографический ежегодник Узбекистана – 2003. Стат. сборник. – Ташкент, 2004. – С.153-154.*
4. *Социальное развитие и уровень жизни населения Узбекистана. Стат. сборник. – Ташкент, 2008. – С.46.*
5. *Социальное развитие и уровень жизни населения Узбекистана. Стат. сборник. – Ташкент, 2008. – С.52.*
6. *Демографический ежегодник Узбекистана – 2003. Стат. сборник. – Ташкент, 2004.*
7. *Социальное развитие и уровень жизни населения Узбекистана. Стат. сборник. – Ташкент, 2008. – С.42.*
8. *Кателюшников, Ростислав Исаакович. «Феномен старения населения: экономические эффекты (Окончание)». Экономическая политика 14.3 (2019): 8-53.*